



BUYUK AKBAR DAVRIDA DIN MASALALARI

Yunusova Buhajal Alimovna¹

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li²

Mamasidikov Abdug'ani Xayrullo o'g'li³

¹Andijon davlat universiteti O'zbekiston tarixi kafedrası
o'qituvchisi,

²Andijon davlat universiteti tarix fakulteti

3-bosqich talabasi,

³Andijon davlat universiteti Tarix fakulteti 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6476441>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-aprel 2022

Ma'qullandi: 10-aprel 2022

Chop etildi: 15-aprel 2022

KALIT SO'ZLAR

Akbarshoh, muhaddislar, umummilliy siyosat, Abdunabi Ahmad, Abulfazl Allomiy, Hindiston.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning nabirasi Akbarshohning din sohasida yoshlikdagi ilmi, mamlakatda musulmon va hindlarning tinch-totuv, yonma-yon yashashi uchun qilgan harakatlari, yuritgan umummilliy siyosatu, G'ayridinlar ya'ni musulmon bo'lmaganlardan olinadigan soliqlarning bekor qilinishi, mansabdorlar tomonidan mahalliy aholiga o'tkaziladigan tazyiqlarga va kamsitishlarga chek qo'yilishi haqida so'z yuritiladi.

Din tarixi va nazariyasiga oid kitoblarni varaqlar ekanmiz, jamiyat yaratilgandan buyon insonlar o'rtasidagi ziddiyat va kelishmovchiliklar jamiyat a'zolaridan birining ikkinchisidan ustunlikka ega ekanligini isbotlashga uringanligi, o'zining boshqalardan yuqoriroq mavqeda ekanini boshqalar tan olishlarini talab etganligini, bu hol esa oxir-oqibatda o'sha jamiyat osoyishtaligidagi munosabatning buzilishiga olib kelganini ko'ramiz.

Hindiston qadimdan ko'p dinlilik hukm surib kelayotgan mamlakat, bu dinlar orasidagi kurash, ekstremistim chiranishlar, dinni qurol qilib siyosiy hokimiyat sari intilishlar, ularni murosaga keltirish uchun urinishlar hali-hanuz davom etib keladi. Ushbu saltanat sohibqironi Amir Temur davlatining ushbu o'lkada davom etgan ko'rinishi bo'lib, ham hudud, ham aholi soni jihatidan Osiyo


qit'asidagi eng ulkan mamlakatlardan hisoblanadi. Mamlakatda ko'p dinlilik hukm sursa-da, ular orasida musulmon dini ancha katta salmoqqa ega edi.

Muhaddislar, ya'ni hadisshunoslar harakati esa Mubammad alayhissalomning o'git va nasihatlarini to'plash, ularning mazmun-mohiyatini mo'minlarga sodda til bilan bayon qilib, Payg'ambarning turmush tarzini tashviqot qilish va shu yo'l bilan bandalarni Allohning irodasiga itoat ettirish bilan shug'ullangan. Bu harakatning ibtidosida ulamo Shayz Ali Muttaqiy turgan bo'lib, uning asosiy maqsadi barcha musulmonlarni shariat talablariga to'la itoat qilishlariga va bu talablarning sof holda saqlanishiga erishish edi. Undan keyin uning ishini Shayx Muhammad va Shayz Abdulhaq Muhaddis Dehlaviylar davom ettirdilar. Akbar Mirzo davriga kelib bu oqimga Abdulfazl Allomiy

va Abdurahmon xoni-xononlar yetakchilik qildilar. [1.260]

Akbar Mirzo bobosi Bobur Mirzoga o'xshash mard jangchi va iqtidorli sarkarda edi. U hech qachon urush qilishdan voz kechmasdi, lekin qilich qozonilgan g'alabadan ko'ra mehr-shafqat va jamiyat bilan erishilgan g'alabani afzal ko'rardi. U hind xalqining farovonligi yo'lida ko'p kuch va g'ayrat sarfladi. Akbarshoh Hindistonda mavjud bo'lgan islom dini bilan hinduizm dinini bir-biriga yaqinlashtirishga harakat qiladi.

Natijada o'zi ijod etgan yangi din – "dini ilohiy"ni vujudga keltirdi. Ammo uning bu "yangi dini" ravnaq topmadi. Aksincha, musulmon ruhoniylarining g'azabini keltirib, o'ziga dushman orttird. Shunga qaramay Akbarshoh asta-sekin hind ommasining va hind zodagonlarining e'tiborini qozona boshladi. U musulmon bo'lmagan kishilardan olinadigan jon solig'i – jizyani bekor qildi. [2.44]



**JALOLIDDIN MUHAMMAD
AKBAR**

Akbar Mirzo o'zining yangi dini bilan solgan shovqini butun davlatda aks-sado topdi. Ba'zi viloyatlar unga qarshi chiqishdi. Bosh ko'targanlar yakson qilingan. Masalan, Shayx Abdulloh as-Sultonpurini Hijozga badarg'a qilgan. Hindistonda Akbar yuritgan siyosat umummilliy siyosat bo'lishini xohlagan. Boshqacha qilib aytganda, dinga tayanmagan, dindan tashqari hukm bo'lishini istardi. U davlatdagi hamma dinlarning aralashmasidan tashkil topgan yangi bir din ixtiro qilmoqchi bo'ldi. Shundan keyin Akbar yangi din asoschisi bo'lib, muqaddaslik sharafiga muyassar bo'lmoqchi edi. Mashhur sabablar yoniga shuni qo'shish kerakki, Akbar yoshligidan diniy ta'lim ololmadi, unga yakka-yu yagona yo'l ko'rsatuvchi bo'lgan odam Bayramxon edi.

Tarixiy kitoblarda zikr etilishicha, faoliyatining boshlarida u ilm va din ahlini o'ziga ko'p yaqinlashtirgan. Hattoki o'zi Shayx Abdunabi Ahmad al-Ganguhiyning uyiga borib, hadislaridan eshitib qaytgan. Uyiga borgan paytda shayxning kovushlarini qo'llari bilan to'g'rilab, poyiga surib qo'yardi. Har yili Achmirga Shayx Muayyinnuddin Hasan as-Sajazi al-Chishtining qabrini ziyorat qilish uchun borgan. Shayx Salim bin Bahouddin as-Saykarovning doimo duosini olardi. [3.19]

Akbarshoh hukmronligi davrida ijtimoiy hayotda qator islohotlar o'tkazildi. Diniy e'tiqodi, mazhabi yoki irqi asosida kamsitib kelingan mahalliy hindlar va boshqa etnik guruhlariga o'z urf-odatlariga rioya qilish, istalgan dinga e'tiqod qilish imkoniyati yaratib berildi. G'ayridin ya'ni musulmon bo'lmagan mahalliy millatlarni muqaddas qadamjolarini ziyorat qilganliklari uchun olinadigan soliqlar



bekor qilindi. Mansabdorlar tomonidan mahalliy aholiga o'tkaziladigan tazyiqlarga va kamsitishlarga chek qo'yildi. Musulmon va mahalliy hind bolalari bir xil umumta'lim maktablarida o'qib, barcha fanlardan bir xil darsliklardan foydalanish tartibi joriy qilindi. Ma'muriy va harbiy idoralardagi mansablarga musulmonlarga emas, balki mahalliy hindlardan ham tayinlanadigan va bir xil unvonlarga tavsiya etiladigan bo'ldi. [4.22]

Akbarshoh barcha fuqarolarga e'tiqod erkinligi bergan. Bir so'z bilan aytganda, Akbarshoh hindlar va musulmonlarning yonma-yon, tinch-totuv yashashlariga erishgan. Akbarshoh yuritgan bunday adolatli siyosat boburiylar davlatining ulkan imperiyaga aylanishida, uning mahalliy aholi va amaldorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynadi.

Bu esa, o'z navbatida, imperiyaning qudrati va shon-shuhratining yanada ortishiga xizmat qilgan. Akbarshoh Hindistonda yuritgan adolatli siyosati evaziga "Milliy podshoh", "Xalq hukmdori" nomlariga ham sazovor bo'lgan.

Jaloliddin Muhammad Akbar Mirzo hukmronlik qilgan davrini Hindiston tarixida "buyuk islohotlar davri" deb atash mumkin. Bu davrda davlatni boshqarish tizimidagina emas, mamlakatdagi ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida katta islohotlar o'tkazildi. Shohning yaqin do'sti va maslakdoshi, o'z davrining ma'lum va mashhur ulamolaridan Abulfazl Allomiyning "Ayni Akbariy" hamda "Akbarnoma" asarlarida bu haqida juda ko'p noyob ma'lumotlar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'ofurjon Sotimov, Markaziy Osiyo va Hindiston tarixda Boburiylar davri. – Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2008. 260-bet.
2. Turg'un Fayziyev, Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1996. 44-bet.
3. Mahmudjon Nuritdinov, Boburiylar sulolasi. – Toshkent: Fan, 1994. 19-bet.
4. G'ofurjon Sotimov, Boburiyzodalar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2003. 22-bet.